

## O‘ZBEKISTON MUZEYLARI – O‘TMISH BILAN BUGUN ORASIDAGI MADANIY KO‘PRIK (XORIJIY TADQIQOTLAR ASOSIDA)

Nizamova Iroda Kurbanovna

Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi Ark o‘lkashunoslik muzeyi  
xisob sektori bo‘limi bosh mutaxassi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20321453>

**Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekiston muzeylarining o‘tmish va bugun o‘rtasidagi madaniy ko‘prik sifatidagi o‘rni xorijiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Unda muzeylar tarixiy xotira, milliy identitet, madaniy meros, ta‘lim va turizmni rivojlantiruvchi muhim institut sifatida yoritiladi. ICOM, UNESCO, L.Adams, A.Khalid, S.Gorshenina kabi tadqiqotchilar qarashlari asosida O‘zbekiston muzeylarining ilmiy-ma‘rifiy, tarbiyaviy va kommunikativ vazifalari ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** muzey, O‘zbekiston muzeylari, tarixiy xotira, madaniy meros, milliy identitet, ICOM, UNESCO, muzey pedagogikasi, Buxoro, madaniy ko‘prik.

### MUSEUMS OF UZBEKISTAN – A CULTURAL BRIDGE BETWEEN THE PAST AND THE PRESENT (BASED ON FOREIGN RESEARCH)

**Abstract.** The article analyzes the role of Uzbekistan’s museums as a cultural bridge between the past and the present on the basis of foreign studies. Museums are examined as important institutions for preserving historical memory, national identity, cultural heritage, education, and tourism. Drawing on ICOM, UNESCO, L.Adams, A.Khalid, and S.Gorshenina, the article reveals the scientific, educational, pedagogical, and communicative functions of museums in modern Uzbekistan.

**Key words:** museum, museums of Uzbekistan, historical memory, cultural heritage, national identity, ICOM, UNESCO, museum pedagogy, Bukhara, cultural bridge.

**Kirish.** O‘zbekiston muzeylari mamlakat tarixiy xotirasi, madaniy merosi va zamonaviy milliy o‘zligini anglash jarayonida o‘tmish va bugun o‘rtasidagi muhim ko‘prik vazifasini bajaradi. Xorijiy muzeyshunoslik nazariyasida muzey faqat qadimiy buyumlar saqlanadigan joy emas, balki jamiyat xizmatidagi ilmiy, ma‘rifiy, kommunikativ va tarbiyaviy institut sifatida talqin qilinadi. Xalqaro muzeylar kengashi - ICOM ta‘rifiga ko‘ra, muzey moddiy va nomoddiy merosni tadqiq etadi, to‘playdi, saqlaydi, talqin qiladi va ommaga namoyish etadi. Muzey ta‘lim, mulohaza, bilim almashish va madaniy xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi [1].

Demak, zamonaviy ilmiy yondashuvda muzey “sukunatdagi ombor” emas, balki tarixiy dalil, jamoaviy xotira va hozirgi ijtimoiy ong uchrashadigan faol madaniy maydondir.

Hozirgi kunda jamiyat hayotida, xalqni fan va madaniyat bilan yaqindan tanishuvida, ilm-fan va madaniyat rivojida, shuningdek xalq maorifida muzeylarning o‘rni tabora o‘sib bormoqda.

Shu bilan birga, aytish mumkinki, muzeylar uzoq o‘tmish bilan bugun orasidagi tirik ko‘prik bo‘lib, tarixiy voqeliklarni jonli tasavvur qilishga imkon beradi. Shuning uchun mustaqillik tufayli O‘zbekistonda muzeylarga bo‘lgan e‘tibor yanada oshdi. Xususan, davlat qarmog‘idagi muzeylar soni 140 tani tashkil etdi. Shulardan tarix muzeylari 75 ta, o‘lkashunoslik muzeylari 23 ta, badiiy san‘at koshonalari 10 ta, memorial muassasa 20 ta, adabiyot muzeylari 8 ta, tabiat muzeylari 4 tadan iborat. Ayni paytda bularda 2 milliondan ortiq eksponatlar mavjud [2, 59]. UNESCOning 2015-yilda qabul qilingan muzeylar va kolleksiyalarni himoya qilish hamda ularning jamiyatdagi roliga oid tavsiyasida muzeylar madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish, ilmiy bilimlarni uzatish, ta‘lim siyosatini rivojlantirish, umrbod ta‘lim, ijtimoiy

birdamlik, ijodiy industriyalar va turizm iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlovchi institut sifatida baholanadi [3]. Ushbu yondashuv O‘zbekiston muzeylarini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki O‘zbekiston hududidagi muzeylar bir tomondan qadimgi sivilizatsiyalar, arxeologik topilmalar, islomiy ilm-fan, temuriylar davri, xonliklar, jadidchilik va sovet davri kabi tarixiy qatlamlarni saqlaydi; ikkinchi tomondan esa ularni bugungi avlodga zamonaviy ekspozitsiya, turizm, raqamli texnologiya va ta’limiy dasturlar orqali yetkazadi.

**Adabiyotlar va ilmiy uslublar tahlili.** Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston muzeylarining tarixiy xotira, madaniy meros va zamonaviy jamiyat hayotidagi o‘rnini yoritishda mahalliy va xorijiy adabiyotlardan foydalanilgan. Xorijiy tadqiqotlar orasida L.Adams, A.Khalid, S.Gorshenina, K.Jarosz va S.Kurbanov asarlari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotlarda muzeylar milliy identitet, tarixiy xotira, madaniy merosni talqin qilish, muzey pedagogikasi va xalqaro madaniy muloqot vositasi sifatida tahlil etiladi. Shuningdek, ICOM va UNESCO hujjatlari muzeylarning zamonaviy ilmiy-ma’rifiy, tarbiyaviy va kommunikativ vazifalarini aniqlashda metodologik tayanch vazifasini bajaradi. Mahalliy adabiyotlar esa O‘zbekistonda muzeylar tashkil etilishi, ularning fondlari, ekspozitsiyalari, yodgorliklarni saqlash va restavratsiya jarayonlarini yoritadi.

Bundan tashqari, tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tizimli, tavsifiy va manbashunoslik tahlili usullaridan foydalanilgan. Tarixiy-qiyosiy usul orqali O‘zbekiston muzeylari xorijiy muzeologik qarashlar bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Tizimli yondashuv muzeylarni ta’lim, madaniyat, turizm, identitet va meros siyosati bilan uzviy bog‘liq institut sifatida o‘rganishga imkon beradi.

Tavsifiy usul muzeylarning tashkil topishi, vazifalari va jamiyatdagi o‘rnini izchil bayon qilishga xizmat qilgan.

**Tahlil va natijalar.** Dastlab muzeylarni tashkil etish, ularning tarixiy davrlarni yorituvchi bazasini yaratish yo‘lida chora-tadbirlar ko‘rildi. Xususan, 1992-yil may oyida Namanganda ulug‘ o‘zbek shoiri Boborahim Mashrab muzeyi ochildi. Bu o‘z navbatida, XVII-XVIII asrlar mumtoz she’riyat tarixini keng yoritish orqali yanada kengroq ommalashtirishda muhim qadam bo‘ldi. 1992-yil sentyabrda esa Xorazm viloyatining Xonqa tumanida Xorazm hofizlar maktabining asoschisi Xojixon Boltaboev nomidagi o‘ziga xos noyob maqomchilar muzeyining tashkil etilishi milliy mumtoz musiqa va kuylarning tarixini tiklash, yosh avlodga yetkazishga xizmat qildi. Urganchda esa qadimgi Xorazm amaliy san’ati va tarixi muzeyi ochildi. Bu muzey ekspozitsiyalarini uch mingga yaqin turli eksponatlar tarixiy hujjatlar, qadimgi xorazmliklar foydalangan uy-joy anjomlari, tikuvchilik va gilam mahsulotlari, idish - tovoqlar, mehnat qurollari tashkil etadi [4, 42].

Xorijiy tadqiqotlarda O‘zbekiston madaniy merosi ko‘pincha milliy identitet, davlat qurilishi va tarixiy xotira bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Laura Adamsning O‘zbekiston madaniyati va milliy identitetiga bag‘ishlangan tadqiqotida mustaqillikdan keyingi davrda madaniyat ishlab chiqarish, ommaviy marosimlar va tarixiy ramzlar milliy o‘zlikni shakllantirish jarayonining muhim vositasi sifatida tahlil qilinadi [1]. Bu xulosa muzeylar faoliyatiga ham bevosita tatbiq etiladi: muzey ekspozitsiyasi tomoshabinga faqat “nima bo‘lganini” emas, balki “bu tarix bugungi jamiyat uchun nimani anglatishini” tushuntiradi. Shu bois muzey o‘tmishning oddiy vitrinasidan ko‘ra kengroq vazifani bajaradi: u tarixiy merosni tanlaydi, tartiblaydi, izohlaydi va uni zamonaviy milliy ong tarkibiga kiritadi.

Adeeb Khalidning “Making Uzbekistan” asarida O‘zbekistonning shakllanishi Rossiya imperiyasi, inqilob, milliy respublika qurilishi va mahalliy ziyolilar faoliyati bilan bog‘liq murakkab tarixiy jarayon sifatida ko‘rsatiladi [3].

Ushbu yondashuv muzeylar uchun ham ahamiyatlidir. Chunki O‘zbekiston muzeylarida namoyish etiladigan tarix bir chiziqli voqea emas, balki turli davrlar — qadimgi shahar madaniyati, islomiy uyg‘onish, temuriylar merosi, Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari, mustamlaka davri, jadidchilik, sovet modernizatsiyasi va mustaqillik davrining murakkab sintezidir. Muzeylar ana shu turli tarixiy qatlamlarni bir umumiy madaniy makonga joylashtiradi.

Natijada ular o‘tmish va bugun o‘rtasida faqat xotira ko‘prigi emas, balki talqin ko‘prigi vazifasini ham bajaradi.

1992-yil noyabr oyida Buxoroda O‘zbekistonda birinchi marta temirchilik muzeyi ochildi [5]. Mazkur muzeyning ochilishi XVI asrga oid temirchilik ustaxonasi, uning tarixi, unda faoliyat olib borgan usta-hunarmandlarning hayoti va faoliyati o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu bilan birga, temirchilik tarixi, qadimgi buyumlar, o‘rta asr hunarmandlarning temirchilik san‘ati bilan mahalliy aholi bilan birga turli tadqiqotchilar, xorijlik sayyoh va mehmonlar Tanisha boshladilar. Muzeyda jamlangan hujjatlar, eksponatlar, turli buyumlar ming yillik madaniyat, moddiy boy tarixni jonli tarzda ommalashtirishda muhim ahamiyatga ega.

1992-yil dekabrda Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida ochilgan xalq baxshisi Islom shoir Nazar o‘g‘lining uy-muzeyi birinchi mehmonlarni qabul qildi. 1993-yil 3-sentyabrda Toshkentda o‘zbek ayollari ichidan chiqqan birinchi huquqshunos olim akademik Xadicha Sulaymonova muzeyi ochildi. O‘zbek ilm fanini yuqori darajaga ko‘targan buyuk olim va olimalarga e‘tiborning yuksak na‘munasini mazkur muzey misolida ko‘rish mumkin. 1993-yil 1-sentyabrda Toshkent davlat texnika universiteti qoshida O‘zbekistonda birinchi bo‘lib Politexnika muzeyi ochildi. 10-sentyabrda Toshkentda o‘zbek raqqosasi Mukarrama Turg‘unboeva muzeyi, 21-sentyabrda esa Navoiy viloyatining Tomdi tumanida mashhur cho‘pon, ikki marta mehnat qahramoni, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining faxriy akademigi Jaboy Balimanovning hayoti va mehnat faoliyati haqida ma‘lumot beruvchi muzey faoliyat boshladi. Shu yil noyabr oyida Toshkentda ochilgan O‘zbekiston Xalq ta‘limi tarixi muzeyi o‘z muxlislarini kutib oldi [6]. Mazkur muzeylarning faoliyati O‘zbekistonda bugungi kunning o‘tmish bilan bog‘langanligi, xotira va qadrlashning yuqori darajada ekanligini namoyon etadi.

1994-yil may oyida Toshkent shahrida Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoati instituti muzeyi, oktyabrda O‘zbekiston xalq rassomi Usta Muhiddin Rahimov va uning o‘g‘li Akbar Rahimovlarning ko‘rgazmali muzeyi ochildi. Toshkentda 1996-yil mayida O‘zbekiston gidrometeorologiya xizmati muzeyi ishga tushdi. Shu yilning 30 noyabrida Toshkentda ochilgan qimmatbaho qog‘ozlar bozori tarixi muzeyiga tashrif buyurgan tomoshabinlar birinchi marta turli davrlarga sayohat qilish sharafiga muyassar bo‘ldilar [7]. Aynan shunday muzeylarning tashkil qilinishi ortidan mahalliy aholining dunyoqarashi kengayib, tarixiy jarayonlarni yanada samarali tushunish imkoniga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarning jonli, ko‘rgazmali manbasi sifatida muzeylarni e‘tirof etish mumkin.

1997-yil oktyabr oyida Buxoroda mashhur buxorolik zarb qiluvchi usta Salim Hamidov muzeyi ochilishi [8] muzeyshunoslik sohasi bilan birga hunarmandchilik san‘ati, tanga zarb qilish faoliyati tarixining qayta tiklanishi bo‘ldi. Buxoro hunarmandchilik maktabi, zarb ishi tarixi, so‘nggi mang‘itlar sulolasi davrida qilingan ishlar to‘g‘risida keng ma‘lumot beruvchi hujjatlar to‘plami, moddiy buyumlar, eksponatlar tadqiqotchilar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

2002-yil 1-avgustda – qatag‘on qurbonlarini yod etish kunida ochilgan “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi quruvchilar, me‘morlar va tarixchi olimlarning ulkan mehnati mahsuli bo‘ldi.

Xalqimizning milliy qadr-qimmatini tiklanishiga, o'zligini qaytadan namoyon etishga istiqbol yo'l ochdi [6].

Darhaqiqat, O'zbekistonda 7 mingdan ko'proq yodgorlik, shu jumladan, 2500 me'moriy obida, 2700 dan ziyod arxeologiya yodgorligi, 1800 dan ko'proq monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. Hozirgi vaqtda O'zbekistonning barcha mintaqalarida, hatto olis tumanlarida ayrim yodgorliklarni nurashdan saqlash va ta'mirlashdan ilmiy tadqiqot ishlari asosida butun-butun me'moriy majmualarni va ko'hna shaharlarning tarixiy markazlarini qayta tiklashga o'tildi [9].

Mamalakatimiz madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish sohasining huquqiy asoslari yaratilgan - «Tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish to'g'risida», «Me'morchilik va shaharsozlik to'g'risida» gi qonunlar amal qilmoqda. Bu yodgorliklarning taqdiri bilan bog'liq barcha masalalar mazkur qonunlarga asosan tartibga solib turiladi. Noyob me'morchilik - shaharsozlik merosini saqlab qolish va avaylab asrash maqsadida 2000 yil 26 aprelda «O'zbekiston Respublikasida me'morchilik va shaharsozlikni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident Farmoni qabul qilindi.

O'tgan yillar davomida olib borilgan me'moriy-tiklash ishlari natijasida Samarqandning Registon maydonidagi majmua yodgorliklari, Shohizinda, Bibixonim me'moriy majmualari, Amir Temur maqbarasi, Ruhobod majmuasi, Imom al-Buxoriy yodgorligi, Buxorodagi Kalon minorasi va masjidi, Mirarab madrasasi, Labihovuz majmuasi, Ulug'bek va Abdulazizxon madrasalari, avdo gumbazlari, shahar tashqarisidagi Sitorai Mohixosa ansambli va Bahouddin Naqshband majmuasi, Xivaning Ichan qal'asidagi barcha me'moriy yodgorliklar, shu jumladan Ko'hna ark, Muhammad Aminxon madrasasi va masjidi, Islomxo'ja minorasi, Dor-us-tilovat ansambllari va Temurning mashhur Oq saroyi, Termizdagi Hakim at-Termiziy me'moriy yodgorligi va boshqa obidalar saqlab qolindi [4].

O'zbekiston muzeylarining o'tmish va bugun o'rtasidagi ko'prikklik xususiyatini O'zbekiston tarixi davlat muzeyi misolida yaqqol ko'rish mumkin. Muzey rasmiy ma'lumotiga ko'ra, u 1876-yilda tashkil etilgan bo'lib, Markaziy Osiyodagi yirik ilmiy-ma'rifiy muassasalardan biri hisoblanadi; uning fondida 300 mingdan ortiq ashyo, jumladan arxeologiya, numizmatika, etnografiya va zamonaviy tarixga oid materiallar mavjud [10]. Bu faktning o'zi muzeyning tarixiy uzluksizlikni aks ettiruvchi institut ekanini ko'rsatadi. Chunki uning kolleksiyalari qadimgi moddiy madaniyatdan tortib, yangi va eng yangi tarixgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi. Bunday muzeylarda tomoshabin tarixni abstrakt matn sifatida emas, balki buyum, hujjat, tasvir, xarita, libos, qurol, tanga, qo'lyozma va ekspozitsiya makoni orqali idrok etadi. Shu jihatdan muzey tarixiy bilimni "ko'rinadigan", "ushlanadigan" va "tajribalanadigan" shaklga aylantiradi.

O'zbekiston muzeylarining yana bir muhim jihati shundaki, ular tarixiy merosni hududiy va sivilizatsion kontekstda ko'rsatadi. UNESCOning Jahon merosi ro'yxatida O'zbekistonning yetti obyekti qayd etilgan: Buxoro tarixiy markazi, Shahrisabz tarixiy markazi, Ichan qal'a, Samarqand - madaniyatlar chorrahasi, Ipak yo'llari: Zarafshon - Qoraqum yo'lagi, Turon sovuq qish cho'llari va G'arbiy Tyanshan [11]. Ushbu ro'yxat O'zbekiston merosining faqat milliy emas, balki umumjahon ahamiyatiga ega ekanini ko'rsatadi. Muzeylar esa ana shu merosni mahalliy va global darajada tushuntiruvchi ilmiy-ma'rifiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz kabi tarixiy shaharlardagi muzeylar bir vaqtning o'zida mahalliy xotira, islomiy madaniyat, Ipak yo'li sivilizatsiyasi va jahon madaniy aloqalari tarixini namoyon qiladi.

Svetlana Gorsheninaning Samarqand madaniy merosiga oid tadqiqotlarida “madaniy meros” tushunchasi mustamlakachilik, ilmiy tasnif, fotografiya, sayohatnomalar va ma’muriy hujjatlar orqali shakllangan murakkab tarixiy konstruksiya sifatida tahlil qilinadi [12]. Bu yondashuv O‘zbekiston muzeylari uchun juda muhim: muzeylar faqat buyumlarni saqlamaydi, balki o‘sha buyumlarning qanday tanlangani, qanday talqin qilingani va qanday tarixiy ma’noga ega bo‘lganini ham ko‘rsatadi. Demak, muzey ekspozitsiyasi tarixiy fakt bilan birga tarixshunoslik jarayonini ham aks ettiradi. O‘zbekiston sharoitida bu ayniqsa muhim, chunki ko‘plab yodgorliklar avval imperiya, keyin sovet, keyin esa mustaqillik davri talqinlari orqali qayta o‘qilgan. Muzey ana shu talqinlar orasida muvozanat topishi, tarixiy merosni biryoqlama ideologik obrazga emas, balki ilmiy asoslangan xotira tizimiga aylantirishi kerak.

Muzeylarning bugungi O‘zbekistondagi vazifasi faqat merosni namoyish qilish bilan cheklanmaydi. O‘zbekiston Madaniy meros agentligi haqidagi rasmiy ma’lumotlarda agentlik moddiy madaniy meros, muzeylar, arxeologiya, madaniy boyliklarning eksport-importi, Milliy muzey fondi, muzey ashyolarini saqlash, targ‘ib qilish, restavratsiya qilish, raqamlashtirish va xalqaro hamkorlik kabi yo‘nalishlarda davlat boshqaruvini amalga oshirishi ko‘rsatiladi [13]. Bu holat muzeylarning bugungi kunda davlat madaniy siyosati, ilm-fan, ta’lim, turizm va raqamli transformatsiya bilan bevosita bog‘langanini anglatadi. Ya’ni muzey o‘tmishni saqlovchi institut bo‘lish bilan birga, bugungi madaniy siyosatning faol ishtirokchisiga aylanmoqda.

O‘zbekiston muzeylarining “ko‘prik” vazifasi ayniqsa ta’limiy faoliyatda seziladi. Zamonaviy muzeologiyada muzey pedagogikasi muhim yo‘nalish sifatida qaraladi. Sukhrob Kurbanovning 2025-yilda Atlantis Press - Springer Nature platformasida chop etilgan maqolasida muzey ta’limi muzey obyektlarini saqlash, o‘rganish va namoyish qilish bilan bir qatorda muzeyning asosiy faoliyatlaridan biri sifatida baholanadi; interaktiv shakllar, master-klasslar, kvest o‘yinlari, ta’limiy sahnalashtirish va yoshlar bilan ishlash muzeyni zamonaviy ilmiy-madaniy kompleksga aylantirishi ta’kidlanadi [14]. Bu yondashuv O‘zbekiston muzeylarida tarixni faqat ko‘rish emas, balki tushunish, his qilish va unga munosabat bildirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda faoliyat olib boruvchi muzeylarning barchasi asosan tarixiy voqealarni ko‘rgazmali, jonli ko‘rsatib bergan holda o‘tmishni yoritib berishda muhim ahamiyatga ega. O‘tmishda sodir bo‘lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni ommalashtirishda muzeylarning o‘rni va roli beqiyos hisoblanadi. Muzeylarning yana bir muhim ko‘priklik vazifasi xalqaro madaniy muloqotda namoyon bo‘ladi. O‘zbekistonning tarixiy merosi chet el tadqiqotchilari, ko‘rgazmalari va ilmiy nashrlarida tobora ko‘proq o‘rganilmoqda. Bu jarayonda muzeylar milliy merosni jahon ilmiy va madaniy muomalasiga olib chiqadigan vositaga aylanadi. Xorijiy tadqiqotlar nuqtayi nazaridan bunday jarayon ikki tomonlama ahamiyatga ega: bir tomondan, O‘zbekiston o‘z tarixiy boyligini dunyoga tanitadi; ikkinchi tomondan, xalqaro ilmiy yondashuvlar mahalliy muzeyshunoslikka yangi metodologiyalar, xususan, raqamlashtirish, dekolonial talqin, kolleksiya tarixi, auditoriya bilan ishlash, inklyuziv ekspozitsiya va meros iqtisodiyoti kabi yo‘nalishlarni olib kiradi.

**Xulosa.** O‘zbekiston muzeylari tarixiy xotirani shakllantirishda selektivlik va mas’uliyat tamoyiliga ham duch keladi. Har qanday muzey ekspozitsiyasi muayyan tanlov asosida quriladi: ayrim voqealar markazga chiqariladi, boshqalari esa chetroqda qolishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy ilmiy yondashuv muzeydan faqat milliy g‘ururni kuchaytirishni emas, balki murakkab tarixiy jarayonlarni xolis va ko‘p qatlamli ko‘rsatishni ham talab qiladi. Masalan, qadimgi sivilizatsiyalar, islomiy meros va temuriylar davri bilan bir qatorda mustamlaka davri,

jadidchilik, sovet davri modernizatsiyasi, deportatsiyalar, ekologik muammolar, xususan Orol fojiasi kabi mavzular ham muzey talqinida muhim o‘rin olishi lozim. Ana shundagina muzey o‘tmishning faqat tantanali obrazini emas, balki tarixiy tajribaning murakkab saboqlarini ham bugungi avlodga yetkazadi.

Shu jihatdan O‘zbekiston muzeylari “o‘tmish, bugun, kelajak” uchligini birlashtiruvchi madaniy institut sifatida talqin qilinishi mumkin. O‘tmish muzey fondlari, arxeologik topilmalar, qo‘lyozmalar, tarixiy hujjatlar va san‘at asarlarida mujassam bo‘ladi. Bugun esa ushbu meros ekspozitsiya, ekskursiya, ilmiy tadqiqot, elektron katalog, xalqaro ko‘rgazma, ta‘limiy loyiha va turizm orqali qayta jonlanadi. Kelajak esa muzeyning yosh avlodga beradigan tarixiy ong, madaniy mas‘uliyat va milliy o‘zlik saboqlarida namoyon bo‘ladi. Xorijiy tadqiqotlar asosida aytish mumkinki, muzeyning asosiy kuchi aynan shu uch zamonni birlashtira olishidadir: u o‘tmishni saqlaydi, bugunga tushuntiradi va kelajak uchun ma‘naviy resursga aylantiradi.

O‘zbekiston muzeylari xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va zamonaviy identitetini bog‘lovchi muhim ijtimoiy-madaniy institutdir. ICOM va UNESCO yondashuvlari muzeylarni jamiyat xizmatidagi ta‘limiy, ilmiy, kommunikativ va inklyuziv makon sifatida baholaydi. Laura Adams, Adeeb Khalid, Svetlana Gorshenina kabi xorijiy tadqiqotchilar esa O‘zbekiston madaniy merosi va tarixiy xotirasi milliy o‘zlik, madaniy siyosat va tarixiy talqinlar bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. O‘zbekiston muzeylari ana shu nazariy qarashlarni amaliy maydonda tasdiqlaydi: ular qadimgi moddiy merosni saqlaydi, uni zamonaviy auditoriyaga tushuntiradi, milliy tarixni global kontekstga olib chiqadi va yosh avlodga tarixiy tafakkurni shakllantiradi. Shu ma‘noda, O‘zbekiston muzeylari haqiqatan ham o‘tmish va bugun o‘rtasidagi ko‘prikdir; ular millatning xotirasini saqlovchi, hozirgi jamiyatni tarbiyalovchi va kelajak avlodga madaniy mas‘uliyatni yetkazuvchi strategik institut sifatida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Adams L.L. The Spectacular State: Culture and National Identity in Uzbekistan. - Durham; London: Duke University Press, 2010.
2. Bekmurodov M. Rashidova M. Muzeyshunoslik – T.: Voris Ali, 2007.
3. Khalid A. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. - Ithaca; London: Cornell University Press, 2015.
4. Sodiqova N Madaniy yodgorliklar xazinasi -T.: Fan, 1995.
5. Алмеев Р.В. Бухара город музеев. –Т: «Фан», 1999. -205 стр.
6. Mirzaaliyev E. Axmadaliyeva L. Millat qiyofasining ko‘zgusi // Iqtisodiyot va soliq. 2009-yil 20-may.
7. Фузнилова Г. Хасанова Г. Музееведение. –Ташкент.: «Фан», 2008. -192 с.
8. Маньковская Л.Ю. Бухара: Музей под открытым небом. -Т.: Гафура Гуляма, 1995. - 255 с.
9. Инамова И. Музееведение. -Ташкент.: Фан, 2006. -357 с.
10. UNESCO. Recommendation concerning the Protection and Promotion of Museums and Collections, their Diversity and their Role in Society. -Paris, 17 November 2015.
11. Kurbanov S. Cultural Heritage of Uzbekistan: The Role of Museum Education in the Formation of a Responsible Attitude to the Environment // Advances in Social Science, Education and Humanities Research. -Atlantis Press, 2025. -P. 152–167.
12. Gorshenina S. Samarkand and its cultural heritage: perceptions and persistence of the

Russian colonial construction of monuments // Central Asian Survey. - 2014. -Vol. 33, No. 2.

13. Jarosz K. Museums in Central Asia and the Construction of National Narratives: Curating Identity. -Springer, 2025.

14. Cultural Heritage Agency of the Republic of Uzbekistan. About the Agency. - Government Portal of the Republic of Uzbekistan, 2026.